

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR
UYUSHMASI

MUXLISAXON HAYDAROVA

MOVIY ORZULAR

She'rlar



TOSHKENT
“ADABIYOT”
2024

Badiiy rahbar:
Sirojiddin SAYYID

Mas'ul muharrir:
Botir ERGASHEV

Nashr uchun mas'ul:
Ma'mura ZOHIDOVA

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan an'ana-
viy tarzda o'tkazilib kelinayotgan Respublika yosh ijodkor-
larining Zomin seminarida 2024-yildan boshlab mamlaka-
timizning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan ijod mak-
tablari o'quvchilari ham ishtirok etishmoqda. Atoqli adiblar
nomi bilan atalib, ta'lim jarayonida tilimiz va milliy adabiy-
timizni chuqur o'rganishga, badiiy ijodga alohida ahamiyat
berilayotgan mazkur o'quv dargohlaridan badiiy ijod bilan
shug'ullanayotgan ko'plab yoshlar yetishib chiqmoqda.

Ijod maktablarining eng iste'dodli o'quvchilari ijodi ki-
tob holida chop etilib, Siz adabiyot muxlislari hukmiga ha-
vola etilmoqda. Ulardan biri **Erkin Vohidov nomidagi ijod
maktabi** o'quvchisi **Muxlisaxon Haydarovadir**. Muallif hali
yosh. Uning yozganlarida ma'lum kamchiliklar bo'lishi tabiiy.
Lekin unda o'qish, o'rganish, izlanish, o'zini ijodiy jihatdan
yuksaltira borish imkoniyati bor. Bu uning o'ziga bog'liq.

Kitob orqali yosh muallifning ko'ngil bitiklarini o'qib,
uning ijod bulog'idan bahramand bo'lishingiz mumkin.

ISBN 978-9910-8882-0-5

© M.Haydarova, 2024
© "Adabiyot", 2024

BAHOR DASTXATI

Quyoshning qo'lida jon berdi kecha,
Ufq qonga belangan, qo'lida nayza.
Azon chaqiradi muazzin qushlar,
Shundan so'ng bosh qo'yar sajdaga maysa.

Yulduzlar so'kilgan chok-choklaridan,
Aslicha qolmagan birorta tola.
Bir zum sukut saqlar borki tirik jon,
Qo'llarin duoga ochganda olam.

Odamlarni qarshi oladi zamin,
Tabiatdan keyin uyg'onar inson.
Nurlarni opichlab yurib kelar tong,
Tunning o'lganini qiladi ayon.

Quyosh qo'llarida jon berdi kecha...

* * *

Xuddi uxlab qolayotganday,
Sukunatga choʻmar bizning bogʻ.
Goʻyo bola zulmatdan qoʻrqib,
Oy nuriga toʻladi chorbogʻ.

Jimjitlikka xalal bermasdan,
Shoshmay, asta oqayapti soy.
Yulduzlar-la bezagan yuzin,
Olmos taqib qoʻyganidek oy.

Uzoqlarda uvullar boʻri,
Oyga qarab aytar ashula.
Yonarqurtlar kezadi atrof,
Har tomonga sochadi shuʻla.

Chigirtkalar chirillar tinmay,
Alla aytar olamga goʻyo.
Yer zulmatga toʻlgan pallada,
Orom olar butun bir dunyo.

* * *

Hilpiratib moviy libosin,
Raqs tushar dengiz jilvakor.
Go'yo quyosh kuylaydi qo'shiq,
Qo'llarida bulutlardan tor.

Oqshom payti tebranmas sokin,
Qo'yilgandek xuddi muzlatib.
Balki hilol qo'shiq o'rniga,
Alla aytib qo'ygan uxlatib.

* * *

Sotilmagan dunda ne qoldi?
"Baxt", "Muruvvat" – bari unda jam.
O'zligimni qidirib chiqdim,
Bu dunyoning bozorlaridan.

Har rastaga birma-bir boqdim,
Har birida turfa xil taqdir.
Kimdir dedi shivirlab asta:
"O'zligingni yurakdan qidir".

Daydi qalbni so'roqqa tutdim
Va eshitib yondi bu dilim.
To beshikdan qonimga singgan
O'zligimdir shu ona tilim!

* * *

Farishtaman – qanotim ulkan,
Bilmayman: o'ngmi yo hushimda.
Osmonlarda parvoz qilaman
Tushimda...

Qulog'imda brilliant sirg'a,
Tillalar yarqirar tishimda,
Pullarga ko'milib yashayman
Tushimda...

Aylana stolda o'tirib,
Boshliqman, unum ko'p ishimda.
Xohlagan narsamni qilaman
Tushimda...

Quyoshim nur sohib turadi,
Birdayin bahor-u qishimda.
Yozda ham qorbo'ron o'ynayman
Tushimda...

RUS TILI DARSIDA

Tushlarimga kiradi Pushkin,
Sira kulmas, turadi tushkun,
Rus tilini o'qimay qo'ysam.

Lermontovning ko'zida yoshlar,
Nahot so'nar buyuk quyoshlar,
Rus tilini o'qimay qo'ysam.

Baholarim suzar oqqushdek,
Kundalikni bezar naqshdek,
Rus tilini o'qimay qo'ysam.

* * *

Kecha kelgan bezori shamol
Olib ketdi uyning tomini.
Tosh otibdi derazamizga,
Endi ko'ring buning holini.

Tor ko'chada hushtak chaladi,
Gap otganday go'zal qizlarga.
Ro'mollarin uchirib ketar
Rang sochadi qirmiz yuzlarga.

Kelmaganda bezori shamol,
Qush uylari buzilmas edi.
Bo'lar edi bizda ham chiroq,
Tok simlari uzilmas edi.

* * *

Yuragimiz moviy, jismimiz moviy,
Osmon kabi cheksiz qalbimiz tutash.
Quyoshga intilib yashaymiz doim,
Tanimiz sovuq, lek ko'nglimiz otash.

Orzuyimiz bitta qush bo'lib uchmoq,
Oymomo – onamiz, otamiz – quyosh.
Quzg'unlar charx ursa tegramizda gar,
Yig'loqi bulutga bo'lamiz sirdosh.

To'lqinlar yuvadi dardlarimizni
Jismimiz boshqa-yu, dilimiz egiz.
G'arq bo'lib ketamiz qo'lni tutgancha,
Moviy orzularning qa'riga, cheksiz!

* * *

Umid kurtagini uchirsa shamol,
Quyoshga entikib tolqanda xayol,
Baxtsiz umidlarim topqanda zavol,
Bahorga aylanib qolar yuragim.

Buvimning kulchasin hidlaganimda,
Osmondan qushlarni izlaganimda,
Qaytadan “ona” deb bo‘zlaganimda
Bahorga aylanib qolar yuragim.

Yomg‘irlar qalbimga tomchilab yog‘sa,
Shodlik g‘am ortidan mo‘ralab boqsa,
Olmosdek yulduzlar soylarda oqsa,
Bahorga aylanib qolar yuragim.

QISH

(sonet)

Oppoq dasturxonin yozib keldi qish,
Suv tutdi zaminga billur qadahda.
Negadir quyoshning yuzida tashvish,
Negadir ufqning yuragi laxta.

Ohista borliqning keldi qoshiga,
Tabiatga yozdi kumush parto'shak.
Keksayib oq tushdi tog'lar boshiga,
Charchadi dunyoga teranlik to'shab.

Qish bazm qiladi, quyosh ranjigan,
Negaki qo'lida taklifnoma yo'q.
Shu sabab dilidan shodlik arigan.

Ko'ksida olovmas, miltillaydi cho'g'
Qorning uchqunlari bir-bir sachragan,
Balki yuragini teshib o'tdi o'q.

* * *

Tongda tabiatning qaroqlari nam
Yig'idan ufqning ko'zlari alvon.
Tundan kaltak yegan o'ksik maysalar
Zorlanib boqadi quyoshga tomon.

Erkinlikni tuygan qushlar baxtiyor,
"Tong keldi" degancha qoqadi qanot.
Shamol dakkisidan qo'rqqan daraxtlar
Oftobga yuz tutib kutadi najot.

Tunning jazosidan qaqshagan zamin...

* * *

Ayoz daydib yurar, dalli, devona
Qor bilan qoplangan tor ko'chalarda.
Nimasin yo'qotgan, bilmas o'zi ham,
G'amgin termuladi darchalardan.

Balki baxtni izlar, balki quvonchni
Go'yoki ma'yuslik tekkan joniga.
Yoki mehr so'rab boqib turadi
Mo'tabar zotlarning xonadoniga.

Hamma uy ichida, tashqari sovuq,
Ayoz yolg'iz turar, ko'zida dahshat.
Xuddi yetim qolgan diydor tilanib,
Har bir derazaga tashlab ketar xat.

* * *

Yuragimni bo'ldim ikkiga,
Javob chiqdi qoldig'i bilan.
Va yaxlitlab tashlab yubordim,
Voz kechdim men ortig'i bilan...

Shunda qoldi sevgisiz yurak
Senga bo'lgan ishqim yo'q ortiq.
Endi yolg'iz... So'ng qayta bo'ldim
Lek bu safar chiqmadi qoldiq.
Qiziq... Nahot, ortiqcha eding?!

* * *

Xayollarim chalkash negadir
Suratingiz chizolmas ular.
Lablarimni makon tutgandir
Alamzada soxta kulgilar.

Yodingiz-la o'tadi umrim,
Eslamagan soniya g'amdir.
Dada, deya takrorlab har on
Chap ko'ksimda og'rir nimadir.

Yuragimga suv va havosiz,
Sizsiz ko'nglim kuyib qaqshaydi.
Mehringizni rad etib bo'lmas,
Chunki mehr sizga o'xshaydi.
Chunki mehr menga o'xshaydi.
Chunki mehr bizga o'xshaydi...

* * *

Ko'zingizdan oqar ko'zyosh,
Mening ko'nglim nurab borar.
Tosh qotgan bu muz qalbimning
Qorlarini kurab borar...

Sizdek mehrim daryo emas,
Ko'zlarimni bosgan tuman.
Balki tola sochingizga
O'xshashga ham arzimasman?

Aytilmoqqa jur'at topmay,
Yuragimda nolam yig'lar.
Lek meni deb, har duoda
Onam yig'lar... onam yig'lar...

MUQADDASGA

Sochi sariq, o'zi mallarang,
Quvnatadi ko'zimni, kulsa.
Meni deydi doimo oriq,
Qani endi semizsan desa.

Uyalarmish men-la yurishdan,
Sababini aytmas, so'rasam.
Oltin yuzi shahlo ko'ziga,
Ko'zoynagi bo'lib qarasam.

Faqat do'sti birgina o'sha,
Tan olaman bu haqiqatni.
Do'st bo'lishga uyalaman chin,
Qo'ldan berdim shunday omadni.

Sotqin bo'lsam, nobakor bo'lsam,
Do'st bo'lishga yarayman arang.
Lekin sizni do'st deb bilaman,
Quyosh gulli, chaqnoq, mallarang!

* * *

Bormisan, yo'qmisan, nima farqi bor?

Usmon Azim

Bormanmi, yo'qmanmi, nima farqi bor?
Yana quyosh chiqar botmoqlik uchun.
Aylanaveradi doimgidek yer,
Tuprog'in bag'rida yotsam ham beun.

Kunlar o'taverar kunlar ortidan,
Odamlar g'imirlar, ming tashvish boshda.
Men yo'q shaharda ham qaynaydi hayot,
Hech kim eslamaydi onamdan boshqa.

Birov ilk bor ko'rar yorug' dunyoni,
Umrin tugab bitgan o'sha sanada.
Vaqt o'tar... kulgilar yangraydi, faqat
Otam yig'lab olar pana-panada.

Nogahon do'stimning yodiga tushsam,
Changitgan ko'chamiz eslaydi bir-bir.
Ukalarim mensiz bo'lganida jam,
Kamdek tuyuladi orada kimdir.

Taqdiri azaldir, zaminning usti,
Bitta peshonaga bo'lganidek tor.
Yana quyosh botar, chiqmoqlik uchun,
Bormanmi, yo'qmanmi, nima farqi bor?

* * *

Toliqtirdi qaro ko'zimni
Qorong'ilik, uzundan uzun.
Ulkan baxtim bir parchasiga
Sotib oldim ming uyqusiz tun.

Kunduz xayol surib charchadim,
Tugamaydi o'ylar so'rog'i.
Balki shoir bo'larman, tunlar
Qiyinaganda she'rning qiynog'i.

* * *

Bola ko'nglim eshigini kelib chertding,
Yolg'iz qalbing yuragimga hadya etding,
Ayozi bo'lib qulog'imdan tishlab ketding,
Indamadim...

Tarqab ketdi bu tanamga ishqning zahri,
Chorlayverar o'z bag'riga sevgi shahri,
Ko'zlarida lov-lov yongan dadam qahrin
O'ylamadim...

Tanti dilim erkalana tong otguncha,
Qancha ko'rsam muhabbatim ortar shuncha,
Ishq o'ynida o'zimdayin seni uncha,
Qiynamadim...

Nigohlaring rang sochadi yonog'imga,
Xayollaring javob bermas so'rog'imga,
Shabbodalar ertak aytsa qulog'imga,
Tinglamadim...

* * *

Men o'sha daydi qiz tunga yo'grilgan,
Yana taqillatib keldim yuraging.
Rosa sog'inganing ko'zlaring aytdi,
Hozir qarshingdadir senga keraging.

Haq yo'lida suydik bir-birimizni,
Ikkimiz sevgidan mast bo'lgan Maxmur.
Qara, Tangrim bizni yaratib qo'yib,
Pok bu sevgimizdan qiladi huzur.

Qani, yur, ketamiz qo'llarimdan tut,
Yolg'onchi dunyodan to'ldi paymonam.
O'zimdayin sodda, oq otda emas,
Yonimga piyoda kelgan shahzodam!

NAVOIY VA BOBURGA

Adabiyot bog'ida ikki quyosh bor,
Biri Navoiydir, birisi Bobur.
Sharqda ul zotlarning ummonlaridan
Shoir tashna qalblar chanqog'i qonur.

Yurt sog'inchi uni ado qilganda,
Bobur deb she'riyat qiladi isyon.
Keskir qalamidan shoirning bugun,
Larzaga keladi butun bir jahon.

Dunyo ta'zim qilar ikki chinorga,
Ko'zga surtib o'qir asarlarini.
Kunduz xonish aylar Yaratgan uchun,
Bulbullar yod olgay g'azallarini.

Angladim Boburdan Vatan qadrini,
Navoiy o'rgatdi so'z zarhallarin.
Agar yuragimga bir gard tushganda,
Dilimga qadayman she'r gavharlarin.

* * *

Qish kechasi, qahraton sovuq,
Ayozi tunni beayov urar.
Tor ko'chada qizcha va bir it
Najot izlab tolmay yugurar.
Birdan qizcha yiqildi yerga,
Muzlab qoldi butun tanasi.
Balki uning tanasi emas
Yuragi muz bo'ldi, chamasi?
Yordam so'rab uvullardi it,
Ammo shahar jimjit va unsiz.
Biroq tashlab ketmadi u ham
Yotar edi qizchadek jonsiz.
Sadoqatning nishonasi bu,
Befarqlikdan ular berdi jon.
Haqiqatdir... biz insonlardan
Shu bechora itlar mehribon!

HAYOTDAN BEVAQT KO‘Z YUMGAN AKAM NOMIDAN

Sokin tun. Uxlaydi keng dunyo,
Tin olgan sayroqi qushlar ham.
Nogahon o‘limga yuzlanib,
Qochaman dahshatli tushlardan.

Olmasdan men hali qo‘limga,
Otamning ketmoni qaqshadi.
Onamning mehriga to‘ymadim,
Yashagim kelyapti, yashagim.

Men sevgan suluv qiz, yaxshi qol,
Ketyapman, ey qaro qoshligim.
Hayotim bahori so‘lmoqda,
O, mening to‘ymagan yoshligim.

Qo‘rqyapman uyquda o‘lishdan,
Bir so‘zsiz, hech kimsiz, yolg‘izman.
Ko‘zimni ochmoqlik istayman,
Yuragim to‘xtagan, jonsizman.

Nahotki so'nggi on, so'nggi kun,
Umrinni ado ham etyapman.
Uyg'onar odamlar, men esa
Xudoning uyiga ketyapman...

* * *

Moviy gilam to'shalgan dengiz,
Boshi uzra nur sochar quyosh.
Oxiri yo'q go'yoki tengsiz,
Bulutlarga bo'ladi sirdosh.

To'lqinlari mavjlanar asta,
So'ngra yuvar sohil yuzini.
U quyoshga tutib guldasta,
Aytar qalbda qolgan so'zini.

MUNDARIJA

Bahor dastxati	3
“Xuddi uxlab qolayotganday...”	4
“Hilpiratib moviy libosin...”	5
“Sotilmagan dunda ne qoldi?”	6
“Farishtaman – qanotim ulkan...”	7
Rus tili darsida	8
“Kecha kelgan bezori shamol...”	9
“Yuragimiz moviy, jismimiz moviy...”	10
“Umid kurtagini uchirsa shamol...”	11
Qish	12
“Tongda tabiatning qaroqlari nam...”	13
“Ayozi daydib yurar, dalli, devona...”	14
“Yuragimni bo‘ldim ikkiga...”	15
“Xayollarim chalkash, negadir...”	16
“Ko‘zingizdan oqar ko‘zyosh...”	17
Muqaddasga	18
“Bormanmi...”	19

"Taqdiri azaldir zaminning usti..."	20
"Toliqtirdi qaro ko'zimni..."	21
"Bola ko'nglim eshigini kelib chertding..."	22
"Men o'sha daydi qiz tunga yo'g'rilgan..."	23
Navoiy va Boburga	24
"Qish kechasi qahraton sovuq..."	25
Hayotdan bevaqt ko'z yumgan akam nomidan	26
"Moviy gilam to'shalgan dengiz..."	28

Adabiy-badiiy nashr

MUXLISAXON HAYDAROVA

Moviy ORZULAR

She'rlar

Muharrir: *M. Nurmetova*

Badiiy muharrir: *A. Umarova*

Sahifalovchi: *A. Qayimov*

Musahhih: *I. Isamuhammedova*

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

M 27

M 27 Haydarova, Muxlisaxon

Moviy orzular [matn]: *she'rlar*/M.Haydarova.

– T.: “Adabiyot” nashriyoti, 2024. – 32 b.

ISBN 978-9910-8882-0-5

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
“ADABIYOT NASHRIYOTI”

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

Tel: (98) 128-30-04.

Bosishga 20.08.2024-yilda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 70x90 $\frac{1}{32}$.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2.0.

Adadi 500 nusxa.



“MASHHUR-PRESS NASHRIYOTI” MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.